

Xamkorlik davr talabi

2020-yilning 12 - mart kuni O'zEKSCO Markazida "Uzbekistan Global Agro Forum" doirasida "Innovatsiyalarni joriy etish va qishloq xo'jaligini boshqarish texnologiyalarini takomillashtirish" bo'yicha fermerlar va ishlab chiqaruvchilar uchun seminar - trening dasturi bo'lib o'tdi. Seminar - trening dasturi AgroMart.uz - Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining O'zbekistonidagi Koordinatori ofisi hamda O'zbekiston Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari tomonidan tashkillashtirilgan bo'lib, "Irrigassiya va melioratsiya" kafedrasini professori v.b. Matyakubov Baxtiyar Shamuratovich mazkur seminar - treningda "Suv tejamkor texnologiyalarining qo'llanilish omillari" mavzusida ma'ruza qildi.



Mazkur seminar-trening xalqaro xamkorlik doirasida tashkil qilingan bo'lib, fermerlar va ishlab chiqaruvchilar uchun juda qiziqarli o'tkazildi. Shu bilan bir qatorda fermerlar va ishlab chiqaruvchilar O'zEKSCO Markazida "Uzbekiston Global Agro Forum"ga tashrif jarayonida Respublikada faoliyat yuritayotgan suv tejamkor texnologiyalarni loyixalash kompaniyalari bilan yaqindan tanishishdi.

TIQXMMI matbuot xizmati